



German spoken language phonology

Sarvinoz JAKHONGIROVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 25 September 2025

Available online

15 October 2025

Keywords:

Phonology,
German language,
spoken discourse,
pause,
intonation,
rhythm,
communicative
competence.

ABSTRACT

This article explores the phonological features of spoken German from a linguistic perspective. It analyzes the role of phonemes and their variants, as well as prosodic features such as stress, intonation, rhythm, and pauses in oral communication. The paper further discusses the communicative function of German phonology and its significance in ensuring clarity, intelligibility, and effectiveness of spoken discourse. Comparative observations with other languages are also presented to highlight the specific characteristics of German phonology in spoken interaction.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss8/S-pp242-245>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Nemis tilida og'zaki nutq fonologiyasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

fonologiya,
og'zaki nutq,
nemis tili,
intonatsiya,
urg'u, ritm,
pauza,
kommunikativ
kompetensiya.

Ushbu maqolada nemis tilidagi og'zaki nutq fonologiyasi xususida ilmiy nuqtai nazardan bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Fonemalar, ularning variatsiyalari hamda urg'u, intonatsiya, ritm va pauza kabi prosodik vositalarning og'zaki nutqda tutgan o'rni haqida atroflicha ma'lumot beriladi. Shu jumladan, nemis fonologiyasining kommunikativ jarayondagi ahamiyati, tinglovchi nutqni to'g'ri va samarali qabul qilishida fonologik birliklarning o'rni keng yoritiladi. Mazkur maqolada boshqa tillar bilan qiyosiy tahlil asosida nemis fonologiyasining o'ziga xos jihatlari ham yoritib beriladi.

¹ Doctoral student, Samarkand State Institute of Foreign Languages.
E-mail: jaxongirovasarvinoz04@gmail.com.

Фонология устной речи на немецком языке

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

немецкий язык
фонология,
фонема,
ударение,
интонация,
устная речь,
ритм,
пауза,
коммуникативная
компетенция.

В данной статье рассматриваются вопросы фонологии устной речи в немецком языке. Анализируется функционирование фонологических единиц в процессе речи, их вариативность и роль в различении значений. Особое внимание уделяется таким просодическим средствам, как ударение, интонация, ритм и пауза, обеспечивающим ясность и эффективность устной коммуникации. Кроме того, выявляются особенности немецкой фонологии в сравнении с другими языками и подчеркивается её коммуникативная значимость.

KIRISH

Tilshunoslik bo'limida fonologiya nutq tovushlarining tizimi va ularning funksional xususiyatlarini o'rganuvchi muhim soha hisoblanadi. Har qanday tilning fonologik tizimi yozma, og'zaki shaklda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, og'zaki nutqda fonologiya katta ahamiyatga ega. Va yana shuni aytish lozimki, u muloqotning tabiiy va tezkor shaklini ta'minlaydi. Nemis tilida og'zaki nutq fonologiyasining o'ziga xos jihati o'zining boy fonetik resurslari, urg'u, intonatsiya va ritmik xususiyatlariga ega ekanligidir. Ushbu maqolada nemis tilida og'zaki nutq fonologiyasining nazariy asoslari, tarixiy taraqqiyoti, o'ziga xos xususiyatlari va uning kommunikativ jarayondagi ahamiyatli roli haqida so'z boradi. Fonologiyaga tilshunoslikning fonetika bilan uzviy bog'liq bo'lgan, ammo undan farq qiluvchi soha sifatida qarashimiz mumkin. Fonetika tovushlarning fizik va artikulyatsion xususiyatlarini o'rganadi. Fonologiya esa tovushlarning ma'no farqlovchi vazifalariga asosiy e'tiborini qaratadi. Nemis tili fonologiyasida unli va undosh tovushlar tizimi, urg'u, intonatsiya va nutq oqimida tovushlarning o'zaro ta'siri kabi tushunchalar alohida o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Fonologik tizim nemis tilida ko'p asrlar davomida ma'lum o'zgarishlarga uchragan. Qadimgi yuqori nemis tilida, ya'ni Althochdeutschda ko'plab diftonglar mavjud bo'lib, keyinchalik ular qisqa unilarga aylangan. Oraliq davrda (Mittelhochdeutsch) uzun va qisqa unli farqlar yanada mustahkamlangan. Zamonaviy nemis fonologiyasi esa asosan XVII–XVIII asrlarda shakllangan standart talaffuz qoidalariga tayanadi. Bu tarixiy jarayonlar og'zaki nutq fonologiyasining bugungi tizimini belgilab berdi.

Nemis tilida 16 ta unli fonema (cho'ziq va qisqa variantlari bilan) va shu jumladan, undosh fonemalar tizimi ham mavjud. Unli tovushlarning cho'ziqlik-qisqalik xususiyatlari nemis tili og'zaki nutqida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Gott [gɔt] va Boot [bo:t] so'zlari faqat unlining cho'ziqligi bilan farqlanadi. Shuningdek, undoshlar tizimida jarangli va jarangsiz oppozitsiya ham muhim rol o'ynaydi. Bunga misol qilib Tee [te:] va See [se:] so'zlarini aytishimiz mumkin. Fonologik tizimdagi bu farqli jihatlar so'zlarning ma'nosini aniq ifodalashda asosiy rol o'ynaydi. Nemis tilining og'zaki fonologiyasini tahlil qilishda dialektal farqlarni ham hisobga olish kerak, albatta. Bavariya va Shveytsariya nemis tilida talaffuz va intonatsiya jihatidan sezilarli farqlar mavjud. Bunga misol qilib shuni aytish lozimki, Bavariya dialektida ba'zi qisqa unilar cho'ziq talaffuz qilinadi. Shveytsariya nemis

tilida esa “r” tovushi ko‘pincha uvulyar talaffuz etiladi. Bu tafovutlar og‘zaki nutqning xilma-xilligini ko‘rsatadi.

Nemis tilida urg‘u so‘zning semantik strukturasini belgilashda muhim fonologik vosita hisoblanadi. Biz bilamizki urg‘u ildiz bo‘g‘inda bo‘ladi, lekin boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlarda ba‘zi istisnalar uchraydi. Og‘zaki nutqda intonatsiya gapning maqsadini bildiradi. Xabar gapda pastdan yuqoriga ko‘tarilib so‘ng pasayuvchi ohang kuzatiladi, so‘roq gaplarda esa yakunda ohang ko‘tarilishi mumkin. Shu orqali intonatsiya nafaqat grammatik, balki pragmatik ma‘no ham ifodalaydi. Og‘zaki nutqda fonologik birliklar ko‘pincha fonetik jarayonlar orqali o‘zgaradi. Masalan, nutq tezlashganda ba‘zi qisqa unlilar reduksiyaga, undosh tovushlar esa assimilyatsiya jarayoniga uchraydi. Masalan, “ich habe es” iborasida tez gapirganda (h) tovushi tushib qolishi mumkin. Aynan shu jarayonlar og‘zaki muloqotning tabiiyligi va ravonligini ta‘minlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nemis va o‘zbek fonologiyasini bir-biriga qiyoslab o‘rganish til o‘rganuvchilar uchun katta amaliy ahamiyatga ega. O‘zbek tilida unli cho‘ziq yoki qisqaligi hech qanday ahamiyatga ega emas. Aksincha, nemis tilida qisqa va cho‘ziq unlilar ma‘no farqlovchi vazifani bajaradi (Bett – Beet). Shuningdek, o‘zbek tilida umlaut tovushlari (/ö/, /ü/, /ä/) mavjud emas. Bu tovushlarni o‘zlashtirishda o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar ba‘zi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuningdek, nemis tilida undoshlar, ya‘ni [ç] va [x] tovushlarini ajratish hodisasi ham mavjud. O‘zbek tilida esa bunday o‘zgarishlar mavjud emas. Bu esa albatta, chet tillarini o‘rganishdagi ma‘lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Nemis tilini ikkinchi til sifatida o‘rganuvchilar ko‘p hollarda fonologik qiyinchiliklarga duch keladilar. Quyida biz mazkur qiyinchiliklarning asosiylarini sanab o‘tamiz:

- unli tovushlarning cho‘ziq-qisqaligini to‘g‘ri talaffuz qilish;
- umlaut tovushlarini talaffuz qilish;
- urg‘uni to‘g‘ri joylashtirish;
- intonatsion ohanglarni moslashtirish.

Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o‘rganuvchilarning ko‘proq fonetik mashqlar bilan shug‘ullanishi, audiomatnlar tinglashi va dialog, suhbatlar qilishi tavsiya etiladi.

Shu o‘rinda biz fonologiyaning kommunikativ ahamiyati haqida ham aytib o‘tishimiz lozim, ya‘ni nemis tilida og‘zaki nutq fonologiyasi kommunikativ samaradorlikni ta‘minlovchi asosiy vositalardan biridir. Muloqot jarayonida to‘g‘ri talaffuz, intonatsion moslashuv va urg‘uning to‘g‘ri qo‘llanilishi fikrning aniq va ravon bo‘lishida yordamchi vositalar hisoblanadi va fonologik omillar og‘zaki nutqning uslubiy xususiyatlarini ham belgilaydi. Masalan, rasmiy muloqotda intonatsiya nisbatan o‘zgarmas bo‘lsa, norasmiy suhbatlarda ohang xilma-xil bo‘ladi. Bunday hodisalar fonologiyaning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy kommunikativ vazifasini ham belgilab beradi.

XULOSA

Nemis tilida og‘zaki nutq fonologiyasi tilning kommunikativ jarayonida markaziy ahamiyatga ega. Nemis tili og‘zaki nutqining boshqa tillardan farqlovchi jarayonlarga unli va undosh fonemalar tizimi, urg‘u va intonatsiyaning o‘ziga xosligi, shuningdek, reduksiya va assimilyatsiya kabilarni kiritishimiz mumkin. Dialekt, ya‘ni shevalardagi farqlar va tarixiy taraqqiyot fonologiyaning murakkabligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Agar fonologik birliklar to‘g‘ri qo‘llanilsa nafaqat tilni o‘zlashtirish jarayonida, balki real

muloqotda ham ko'plab muvaffaqiyatlarga erishish mumkin bo'ladi. Shu sababli nemis tili fonologiyasini chuqur o'rganish til o'rganuvchilarning fonetik madaniyatini oshiradi va shu bilan birga ularni samarali muloqotga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kohler, K. J. Einführung in die Phonetik des Deutschen. Berlin: Schmidt, 1995.
2. Hall, T. A. Phonologie: Eine Einführung. Berlin, New York: de Gruyter, 2000.
3. Wiese, R. The Phonology of German. Oxford: Clarendon Press, 1996.
4. Jessen, M. Phonetics and Phonology of Tense and Lax Obstruents in German. Amsterdam: John Benjamins, 1998.
5. Ulrich, H. Deutsche Aussprache. Eine Einführung in die Phonetik und Phonologie der deutschen Standardsprache. Leipzig: Langenscheidt, 2002.
6. Duden Institut. Duden Aussprachewörterbuch. Mannheim: Dudenverlag, 2015.
7. Helbig, G., & Buscha, J. Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. Berlin: Langenscheidt, 2001.
8. Mangold, M. Das Aussprachewörterbuch. Mannheim: Dudenverlag, 2005.
9. Krech, E. M., Stock, E., Hirschfeld, U., & Anders, L. Deutsche Aussprache: Regeln für die Hochlautung. Berlin: de Gruyter, 2009.
10. Russ, C. V. The German Language Today: A Linguistic Introduction. London: Routledge, 1994.
11. Kholikov, B. A. 1-sho 'ba the language of fantasy: linguistic features in mythological and fantasy literature. Ilmiy va professional ta'lim jarayonida muloqot, fan va madaniyatlar integratsiyasi, 17.
12. Anorqulov, S. I. (2020). TOPONYMS AS CULTURALLY SIGNIFICANT LANGUAGE UNITS. Theoretical & Applied Science, (9), 442-447.